Insonga naf keltirish — oliy baxt!

# Ishonch

Gazeta 1991-yil 21-martdan chiqa boshlagan

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining nashri ● 2015-yil 24-fevral, seshanba, № 26 (3531)

*Ўз ҳаётимизни Ватан истиқболи, фаровон келажаги учун бағишлаб яшаш инсоний ва фуқаролик бурчимиздир.*

Ислом КАРИМОВ

## ЕВРОПАДА ХАВФСИЗЛИК ВА ҲАМКОРЛИК ТАШКИЛОТИНИНГ ДЕМОКРАТИК ИНСТИТУТЛАР ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ БЎЙИЧА БЮРОСИ КУЗАТУВЧИЛАРИ МИССИЯСИ ИШ БОШЛАДИ



***Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясида элчи Каетана де Зулуета раҳбарлигидаги Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилотининг (ЕХҲТ) Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюроси кузатувчилари миссиясининг асосий гуруҳи аъзолари билан учрашув бўлиб ўтди. Унда Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш, шунингдек, миссия фаолиятини ташкил этиш масалалари бўйича атрофлича фикр алмашилди.***

Марказий сайлов комиссияси раисининг ўринбосари К.Одилов меҳмонларни Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш бўйича асосий тадбирлар дастурининг амалга оширилиши билан таништирди.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда халқаро сайлов стандартларига мувофиқ демократик сайловлар ўтказиш борасида ижобий тажриба тўплангани таъкидланди. Фуқароларнинг сайлов ҳуқуқи кафолатларини янада мустаҳкамлаш, сайловларни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича миллий тажрибани бойитишга йўналтирилган сайлов қонунчилиги мунтазам такомиллаштириб борилмоқда. Марказий, округ ва участка сайлов комиссиялари ўз фаолиятида сайлов кампаниясининг барча босқичларида қонунийлик, ошкоралик ва транспарентлик принципларига қатъий риоя этилишига алоҳида эътибор қаратмоқда.

Учрашувда Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 117-моддасига киритилган ўзгартишларга мувофиқ, сайловни ташкил этиш ва уни ўтказиш учун масъул конституциявий орган сифатида Марказий сайлов комиссияси мустақиллигининг ҳуқуқий кафолатлари сезиларли равишда мустаҳкамлангани, мустақиллик, қонунийлик, коллегиаллик, ошкоралик, адолатлилик комиссия фаолиятининг асосий принциплари экани таъкидланди. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига киритилган қўшимчаларга биноан, сайлов жараёнига жалб этилган жисмоний ва юридик шахсларнинг сайлов қонунчилигига риоя этиш, Марказий сайлов комиссияси қарорларини сўзсиз бажариш бўйича жавобгарлиги кучайтирилгани алоҳида қайд этилди.

Ўз навбатида, ЕХҲТ Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюроси кузатувчилари миссияси раҳбари сайлов жараёнини кузатишга таклиф этгани учун миннатдорлик билдирди. У миссиянинг асосий вазифаси миллий сайлов қонунчилиги ҳамда сайловни ташкил этиш ва уни ўтказиш тажрибаси умум қабул қилинган халқаро нормалар, жумладан, ЕХҲТ стандартларига мувофиқлигини баҳолашдан иборат эканини таъкидлади.

— Миссия Ўзбекистондаги фаолиятини 23 февралдан бошлади, — дейди Каетана де Зулуета. — Ўзбекистонга 11 нафар халқаро эксперт келди ва миссиянинг Тошкентдаги штабида фаолият бошлади. 28 феврал куни узоқ муддат фаолият юритадиган 10 нафар кузатувчи келади. Улар Тошкент, Нукус, Бухоро, Самарқанд ва Фарғонада сайлов жараёнларини кузатади. Миллий қонунчилик базаси ва ҳуқуқни қўллаш амалиётини баҳолаб, Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзодларнинг сайловолди тарғиботи, сайлов комиссиялари ва тегишли давлат органлари фаолияти ҳамда сайловчиларни рўйхатга олиш жараёнини кузатамиз. Шунингдек, оммавий ахборот воситаларини комплекс мониторинг қиламиз.

Учрашувда томонлар ЕХҲТ Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюроси миссияси фаолияти сайлов жараёнининг очиқлиги ва ошкоралигини таъминлаш, уни миллий сайлов қонунчилиги, халқаро стандарт ва нормаларга мувофиқ ташкил этишга кўмаклашишига ишонч билдирди.

Шу куни ЕХҲТ Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюроси миссияси Тошкентда фаолияти бошланишига бағишланган матбуот анжумани ўтказди. Матбуот анжуманида оммавий ахборот воситалари вакилларини қизиқтирган саволларга жавоб қайтарилди.

Таъкидлаш жоизки, "Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови тўғрисида"ги қонуннинг 5-моддасига мувофиқ, миллий ва халқаро кузатувчилар сайловни кузатишда иштирок этиши назарда тутилган. Айни пайтда кузатув сайлов жараёнининг барча босқичларида, шунингдек, сайлов куни овоз бериш хоналарида ва овозларни санаб чиқишда амалга оширилиши мумкин.

Марказий сайлов комиссияси ўтган сайловларда бўлгани каби шу йил 29 март куни бўлиб ўтадиган Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловида иштирок этиш учун Европа, Осиё, Америка ва Африка мамлакатларидан кўплаб кузатувчилар, шунингдек, халқаро ташкилотларнинг кузатувчилар миссияларини таклиф этди.

**Сардор ТОЖИЕВ,**
**ЎзА мухбири.**
**ЎзА фотомухбири**
**Аъло АБДУЛЛАЕВ**
**олган сурат**

### Кўрик-танлов



ЎзА фотомухбири Темур МАМАДАМИНОВ олган сурат

## НАМУНАЛИ МИЛИЦИЯ ТАЯНЧ ПУНКТЛАРИ

***Тинчлик ва осойишталик, ўзаро меҳр-оқибат қарор топган жойда турмуш фаровонлашиб бораверади. Мамлакатимизда амалга оширилган изчил islоҳотлар туфайли барча соҳаларда эришаётган муваффақиятларимиз, мамлакатимизнинг халқаро майдонда обрў-эътибори юксалиб бораётганининг муҳим омили ҳам тотувлик ва ҳамжиҳатликдадир.***

Халқ билан якдил, ҳамнафас иш юритаётган маҳалла фаоллари, профилактика инспекторлари фаолиятининг замон талабидан келиб чиқиб такомиллашиб бораётгани шу мақсадга хизмат қилаётир. Анъанавий равишда ўтказиб келинаётган "Намунали милиция таянч пункти" кўрик-танлови бунинг амалий ифодаси бўлиб, мазкур тадбир орқали тизимдаги энг илғор тажриба ва ютуқлар оммалаштирилаётир.

"Туркистон" саройида мазкур танловнинг 2014 йил бўйича мамлакат босқичи бўлиб ўтди.

Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазири, генерал-лейтенант А.Аҳмадбоев ва бошқалар Президентимиз Ислом Каримов раҳнамолигида халқимизнинг тинч ва фаровон ҳаёт кечириши учун барча шарт-шароит яратилганини таъкидлади. Айниқса, осойишталикни таъминлаш борасида амалга оширилган ислоҳотлар натижасида жамиятнинг энг муҳим бўғини бўлган маҳаллаларда ўзаро меҳр-оқибат муҳити қарор топиб, аҳоли тадбиркорлик, бунёдкорлик ишлари билан машғул бўлса, ёшлар ҳунар эгаллаш, спорт билан шуғулланиш, илм ўрганишда юксак чўққиларни забт этмоқда.

Буларнинг бари жамиятда маҳалла институтининг роли ва мавқеи юксалаётгани, ички ишлар идоралари ходимларининг мазкур тузилма билан ўзаро ҳамкорлиги мустаҳкамлангани натижасидир. 2014 йил 14 майда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг "Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги қонуни ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш соҳасидаги фаолиятни янада такомиллаштириш ва мустаҳкамлашда ҳуқуқий асос яратди.

Айни пайтда профилактика инспектори, маҳалла оқсоқоли, диний маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия масалалари бўйича маслаҳатчилар, хотин-қизлар кенгаши, яраштириш комиссияси ва посбонларнинг бир жойда, замонавий жиҳозлар ва зарур алоқа воситалари билан таъминланган биноларда фаолият юритаётгани боис учраётган муаммолар жойида, тезкорлик билан ҳал этилмоқда. Натижада 2014 йилда икки мингдан зиёд маҳаллада бирорта ҳам жиноят содир этилмади.

●●●○▶4

### Эътироф

***Навоий вилоят касаба уюшма ташкилотлари бирлашмаси тасарруфидаги "Касаба чевар" масъулияти чекланган жамиятида 20 та янги иш ўрни ташкил этилган бўлиб, ишчи-ёшларнинг меҳнат қилиши учун барча шароит яратилган.***

## "КАСАБА ЧЕВАР" — КАСБИНИ СЕВАР

— Ишни йўлга қўйиб олиш учун Касаба уюшмалари Федерация Кенгаши томонидан 33 млн. сўм маблағ ажратилган эди, — дейди корхона раҳбари А.Худоёров. — Натижада, замонавий ускуна ва жиҳозларга эга бўлдик. Ўтган йилда 22 млн. сўмлик 70 хилдан ортиқ маҳсулот ишлаб чиқарилди.

Дарҳақиқат, аёллар ва ёшлар халатлари, спорт жамланмалари, тўшак-чойшаблар, дастурхон, кўрпа ва бошқа харидоргир маҳсулотлар кўзни қувонтиради.

Нархларнинг ҳамёнбоплиги боис Кармана тумани бозори қошида фаолият юрита бошлаган жамиятга тегишли дўконда тайёр маҳсулотлар кўп туриб қолмаётир.

Келгусида иш ҳажми ва маҳсулотлар кўламини ошириш эвазига янги иш ўринлари яратиш чоралари кўриляпти.

**Мансур АЛОВУДДИНОВ,**
**"Ishonch" мухбири**

### Фармон ва ижро

***Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси Кенгаши томонидан 1941-1945 йиллардаги уруш ва меҳнат фронти фахрийларини санаторийларда соғломлаштиришни ташкил этиш масалаларига доир ўқув семинар ташкил этилди.***



УзА сурати

## КЕКСАЛАРИ ЭЪЗОЗЛАНГАН ЮРТ

Унда Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш, Молия, Соғлиқни сақлаш вазирликлари, фахрийларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш "Нуроний" жамғармаси мутасаддилари, уруш ва меҳнат фронти фахрийларини соғломлаштириш ва ҳордиқ чиқаришлари ташкил этилиши кўзда тутилган 37 та санаторий муассасалари раҳбарлари иштирок этдилар.

Семинарда таъкидланганидек, давлатимиз раҳбари томонидан мамлакатимизда ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этиш жараёнида кучли ижтимоий сиёсатни амалга ошириш асос қилиб олинган. Натижада аҳоли, айниқса, ижтимоий ҳимоятталаб инсонлар давлат ва жамиятнинг доимий эътиборида бўлмоқда. Президентимизнинг 2014 йил 13 октябрдаги "1941-1945 йиллардаги уруш ва меҳнат фронти фахрийларини ижтимоий қўллаб-қувватлашни янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони ана шундай хайрли амаллар кўламини янада кенгайтирди. Хусусан, мазкур ҳужжат Иккинчи жаҳон уруши ва меҳнат фронти фахрийларини манзилли ижтимоий қўллаб-қувватлаш, тиббий ҳамда санаторий-соғломлаштириш соҳасида хизмат кўрсатиш даражаси ва сифатини ошириш ҳисобига уларнинг соғлиғини мустаҳкамлаш учун қулай шарт-шароитлар яратишда муҳим асос бўлиб хизмат қилади.

Бугунги кунда республикамизда жами 73 минг 694 нафар уруш ва меҳнат фронти фахрийлари истиқомат қилмоқда. Улардан 3 минг 311 нафари уруш қатнашчилари ва 70 минг 383 нафари фронт ортида хизмат қилган фахрийлардир.

Фармонга мувофиқ 2015 йилдан бошлаб уруш ва меҳнат фронти фахрийлари йилига бир марта ўзлари учун мақбул муддатларда, Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги, Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси Кенгаши, республика давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг санаторий-соғломлаштириш муассасаларида бепул соғломлаштириш курсидан ўтиш ҳуқуқига эга бўлди. Уруш ва меҳнат фахрийлари учун санаторий-соғломлаштириш муассасаларига берилган йўлланмалар давлат бюджети маблағлари ҳисобидан қопланади.

Семинарда уруш ва меҳнат фронти фахрийларини соғломлаштириш ва ҳордиқ чиқаришлари ташкил этилиши кўзда тутилган санаторий-соғломлаштириш муассасалари Касаба уюшмалари Федерацияси Кенгаши, Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги, "Ўзбекистон темир йўллари" ДАТК, "Ўзкимёсаноат" ДАК, "Ўзбекнефтегаз" МХК ва бошқа вазирлик ҳамда идораларга қарашли энг яхши санаторийлар эканлиги алоҳида таъкидланди.

●●●○▶4

***Хоразм вилояти Хонқа тумани Сарапоён қишлоғида маданият ва аҳоли дам олиш маркази фойдаланишга топширилди.***

## ҚУЛАЙЛИК

Шу муносабат билан ташкил этилган тадбирда Президентимиз раҳнамолигида аҳоли яшаш шароитларини янада яхшилаш, турмуш фаровонлигини юксалтириш, мазмунли дам олишини ташкил этиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилаётгани таъкидланди.

Ушбу замонавий марказда турли кўргазмалар, танловлар, халқ ижодиёти ва томоша санъати фестиваллари ўтказиш учун барча шароит яратилган. Энг муҳими, марказ ишга туширилиши билан 15 кишининг бандлиги таъминланди.

Қишлоқ кўркига-кўрк қўшган марказ биносида компютер саводхонлиги, тўқувчилик, тикиш-бичиш, мусиқа ва спорт тўгараклари ташкил этилади.

**ЎзА**

### Томорқа — даромад манбаи



## ИШНИНГ КЎЗИНИ БИЛ

***Самарқанд вилоятида истиқомат қилаётган 557 минг 200 та хонадон тасарруфида 71 минг 900 гектар томорқа мавжуд. Кейинги икки йилда шахсий томорқа хўжаликларини ривожлантиришга эътибор янада кучайтирилди. Барча ҳудудларда хонадонлар паспортлари яратилиб, томорқа эгаларига зарур кўмаклар кўрсатилмоқда.***

Жорий йил 16 та агрофирма ва 90 та мини агрофирмалар ташкил этилди. Улар уруғлик, дарахт кўчатлари, чорва, парранда етказиб беришга ҳамда аҳолидан қишлоқ хўжалик маҳсулотлари қабул қилиб олишга ихтисослашган. Фаолиятни йўлга қўйиши учун "Микрокредитбанк" АТБ вилоят филиали агрофирмаларга бир миллиард 129 миллион сўм миқдорида кредит ажратди. Агрофирмалар шу кунга қадар таъминотчи ташкилотлар билан 10 миллиард 815 миллион сўмлик шартномалар имзолади. Шунингдек, янги иш ўринлари сони кўпайиб, 149 нафар фуқаро иш билан таъминланди.

Мазкур жараёнларда касаба уюшма ташкилотлари ҳам фаол иштирок этаётир. Барча туман, шаҳарларда ҳокимликлар ва "Маҳалла" хайрия жамоат фонди билан ҳамкорликда кам таъминланган оилалар рўйхати шакллантирилиб, уларга ёрдамлашиш бўйича чора тадбирлар режаси ишлаб чиқилди. Жумладан, Оқдарё туманидаги Қоратери қишлоқ фуқаролар йиғини ҳудудида истиқомат қилувчи Барчиной Арзимуродова хонадони ихтиёрида 8 сотих ер майдони бўлиб, уларга томорқадан оқилона фойдаланиш юзасидан тавсиялар берилди ва керакли уруғ ҳамда бошқа зарур воситалар етказиб берилишида кўмаклашилди. Натижада, оила томорқадан салмоқли фойда кўрди.

**Нурилла ШАМСИЕВ,**
**"Ishonch" мухбири**

2015-yil 24-fevral, seshanba, № 26 (3531), www.ishonch-doverie.uz, e-mail: xatlar@ishonch-doverie.uz

## Ҳотамжон Кетмоновнинг Жиззах вилояти сайловчилари билан учрашуви

***Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзодларнинг сайловчилар билан учрашуви давом этмоқда. Халқ демократик партиясидан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ҳотамжон Кетмонов 21 феврал куни Жиззах вилояти сайловчилари билан учрашди.***

Учрашувни Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини ўтказувчи 4-Жиззах округ сайлов комиссиясининг раиси А.Сатторов очди. Президентликка номзоднинг ишончли вакили М.Каримова йиғилганларни номзоднинг таржимаи ҳоли билан таништирди.

Учрашувда Президентликка номзод Ҳотамжон Кетмонов ўзининг сайловолди дастури юзасидан нутқ сўзлади.

Дастурда аҳоли, айниқса, кам таъминланганларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини янада ривожлантириш, аҳолининг истеъмол эҳтиёжларини тўла қондириш мақсадида маҳаллий хомашё ва материалларни қайта ишлаш корхоналари фаолиятини такомиллаштириш, юқори сифатли истеъмол товарлари ишлаб чиқаришни рағбатлантириш, етиштирилаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш бўйича қишлоқ жойларида оилавий тадбиркорлик ва касаначиликни ташкил этиш орқали аҳоли бандлиги ва турмуш фаровонлигини таъминлашни кучайтириш вазифалари белгиланган.

Учрашувда Жиззах транспорт ва саноат касб-ҳунар коллежи директори Қ.Эргашев, Жиззах тумани фермерлар кенгаши раиси А.Абдураҳмонов, Зомин тумани 1-ўқувчилар ижодиёт маркази директори Г.Абдулҳакимова ва бошқалар номзоднинг дастури ва унда белгиланган вазифалар ҳақида ўз фикр-мулоҳазаларини билдирди. Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови жараёни кўппартиявийлик асосида ўтаётгани мамлакатимизда демократик ислоҳотлар ҳаётга татбиқ этилаётганининг амалдаги ифодаси эканини таъкидлади.

**Т.БЕКНАЗАРОВ,**
**ЎзА мухбири**

## Акмал Саидовнинг Навоий вилояти сайловчилари билан учрашуви

***Ўзбекистон "Миллий тикланиш" демократик партиясидан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Акмал Саидов 21 феврал куни Навоий вилояти сайловчилари билан учрашди.***

Учрашувни Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини ўтказувчи 5-Навоий округ сайлов комиссиясининг раиси Ў.Мавлонов очди. Президентликка номзоднинг ишончли вакили Б.Бозоров йиғилганларни номзоднинг таржимаи ҳоли билан таништирди.

Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Акмал Саидов ўз сайловолди дастури юзасидан нутқ сўзлади.

Номзоднинг сайловолди дастурида давлат ва фуқаролик жамияти ўртасида ижтимоий шерикликни ривожлантириш бўйича ташкилий-ҳуқуқий ва иқтисодий чоралар кўриш, бунинг учун маҳаллий вакиллик органлари ҳузурида жамоатчилик комиссиялари тузиш ҳамда нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларини изчил рағбатлантириш тизимини амалиётга жорий этиш, ўзбек халқининг тарихий, маданий ва интеллектуал мероси, маданияти ва анъаналарини асраб-авайлаш ва бойитиш, унинг ютуқларини навқирон ва баркамол авлод орасида кенг тарғиб қилиш бўйича бир қатор устувор вазифалар белгиланган.

Учрашувда Навоий шаҳридаги Меҳрибонлик уйи директори Д.Орзиева ва бошқалар номзоднинг дастури бўйича ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб, унда қайд этилган устувор йўналишларни амалга ошириш мамлакатни ижтимоий ривожлантириш, демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштиришга хизмат қилишини алоҳида таъкидлади. Сайловчиларни 29 март куни бўлиб ўтадиган Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловида фаол иштирок этишга чақирди.

**Н.РАҲИМОВ,**
**ЎзА мухбири**

## Наримон Умаровнинг Сурхондарё вилояти сайловчилари билан учрашуви

***Ўзбекистон "Адолат" социал-демократик партиясидан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Наримон Умаров 21 феврал куни Сурхондарё вилояти сайловчилари билан учрашди.***

Учрашувни Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини ўтказувчи 9-Сурхондарё округ сайлов комиссиясининг раиси А.Аҳмедов очди. Президентликка номзоднинг ишончли вакили Ш.Ҳайитов йиғилганларни номзоднинг таржимаи ҳоли билан таништирди.

Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Наримон Умаров нутқ сўзлаб, сайловолди дастурида илгари сурилган асосий йўналишлар ҳақида маълумот берди.

Дастурда мамлакатимизда амалга оширилаётган демократик ўзгаришларни қўллаб-қувватлаб, жамиятда қонун устуворлиги ва ижтимоий адолат тамойилларини таъминлаш, иқтисодиётнинг ижтимоий йўналтирилишини кучайтириш, аҳоли турли ижтимоий гуруҳ ва қатламларининг турмуш сифати ва даражасини янада ошириш каби муҳим вазифалар белгиланган. Ижтимоий аҳамиятга молик фуқаролик ташаббусларини қўллаб, нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш, нодавлат нотижорат ташкилотларининг соғлиқни сақлаш, таълим, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳаларида муаммоларни ҳал қилишдаги иштирокини ошириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

Учрашувда "Адолат" социал-демократик партияси Денов тумани кенгаши раиси А.Бўриев, Жарқўрғон туманидаги 3-умумтаълим мактаби ўқитувчиси Д.Мўминова, Термиз ахборот технологиялари ва маиший хизмат касб-ҳунар коллежи директори Ў.Тошбоев ва бошқалар номзоднинг сайловолди дастури ҳақида ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб, сайловчиларни Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга бўлган Президент сайловида фаол иштирок этишга чақирди.

**Х.МАМАТРАЙИМОВ,**
**ЎзА мухбири**

## Ҳотамжон Кетмоновнинг Самарқанд вилояти сайловчилари билан учрашуви

***Ўзбекистон Халқ демократик партиясидан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ҳотамжон Кетмонов 21 феврал куни Самарқанд вилояти сайловчилари билан учрашди.***

Учрашувни Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини ўтказувчи 7-Самарқанд округ сайлов комиссиясининг раиси Я.Аллаёров очди. Президентликка номзоднинг ишончли вакили К.Исабеков йиғилганларни номзоднинг таржимаи ҳоли билан таништирди.

Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Ҳотамжон Кетмонов сайловчиларга ўз сайловолди дастурида илгари сурилган асосий йўналишлар ҳақида маълумот берди.

Дастурда ижтимоий шериклик институтларини янада ривожлантириш, фуқаролар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг суд механизмлари оммабоплигини кенгайтириш ва мазкур масалаларда суд назоратини кучайтириш ҳисобига суд қарорлари ижроси сифатини ошириш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиш каби устувор вазифалар белгиланган. Аҳоли, айниқса, олис қишлоқ ҳудудларида бирламчи тиббий ёрдамдан қулай ва тез фойдаланиш имкониятини таъминловчи қишлоқ врачлик пунктлари тармоғини кенгайтириш, фармацевтика корхоналари ва дорихона муассасалари фаолияти, дори-дармон воситалари нархи устидан давлат назоратини кучайтириш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилган.

Учрашувда Каттақўрғон туманидаги 20-умумтаълим мактаби директори З.Бердиева, Халқ демократик партияси Каттақўрғон шаҳар кенгаши раиси Т.Ҳамидов ва бошқалар номзоднинг дастури ҳақида ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб, унда белгиланган устувор йўналишлар мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ҳамда халқимиз турмуш фаровонлигини юксалтиришга қаратилганини таъкидлади.

**Ғ.ҲАСАНОВ,**
**ЎзА мухбири**

## Акмал Саидовнинг Бухоро вилояти сайловчилари билан учрашуви

***Ўзбекистон "Миллий тикланиш" демократик партиясидан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Акмал Саидов 21 феврал куни Бухоро вилояти сайловчилари билан учрашди.***

Учрашувни Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини ўтказувчи 3-Бухоро округ сайлов комиссиясининг раиси М.Даминов очди. Президентликка номзоднинг ишончли вакили С.Раупов йиғилганларни номзоднинг таржимаи ҳоли билан таништирди.

Учрашувда Президентликка номзод Акмал Саидов ўз сайловолди дастури юзасидан нутқ сўзлади.

Номзоднинг сайловолди дастурида юксак эстетик қимматга эга бўлган миллий ҳунармандлик турларини қайта тиклаш ва ривожлантириш, миллий бадиий мактабларнинг анъаналарини сақлаб қолиш, ёшлар онгини халқимизга ёт бўлган "оммавий маданият"нинг салбий таъсиридан муҳофаза қилиш мақсадида ёшларни миллий тикланиш ғояси, миллий маданият ва қадриятларни эъзозлаш руҳида тарбиялаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган. Давлат тилини бойитиш ва янада такомиллаштириш, тил маданияти ва унинг мақомини, муомала маданиятини юксалтиришга йўналтирилган чора-тадбирлар мажмуасини ишлаб чиқиш, оммавий муомалада ўзбек адабий тили меъёр ва қоидалари бузилишининг олдини олишга қаратилган аниқ мақсадли ишлар олиб бориш муҳим вазифалар қаторида қайд этилган.

Учрашувда Бухоро давлат университети доценти Ў.Очилов ва бошқалар номзоднинг сайловолди дастури хусусида ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб, сайловчиларни 2015 йил 29 март куни бўлиб ўтадиган Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловида фаол иштирок этишга чақирди.

**Э.ЁДГОРОВ,**
**ЎзА мухбири**

## Наримон Умаровнинг Қашқадарё вилояти сайловчилари билан учрашуви

***Ўзбекистон "Адолат" социал-демократик партиясидан Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Наримон Умаров 21 феврал куни Қашқадарё вилояти сайловчилари билан учрашди.***

Учрашувни Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловини ўтказувчи 13-Қашқадарё округ сайлов комиссиясининг раиси И.Жўраев очди. Президентликка номзоднинг ишончли вакили А.Аҳмедов йиғилганларни номзоднинг таржимаи ҳоли билан таништирди.

Ўзбекистон Республикаси Президентлигига номзод Наримон Умаров ўз сайловолди дастури юзасидан нутқ сўзлади.

Дастурда сиёсий ислоҳотларнинг янада чуқурлаштирилиши, демократик қадриятларнинг мустаҳкамланиши ва ривожланиши, жамиятда адолат, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари устуворлигини таъминлаш, бошқарувда очиқлик, шаффофлик ва ҳисобдорлик тамойилларини таъминлаш, ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг муҳим масалаларини ечиш юзасидан қарорлар шакллантириш ва қабул қилиш жараёнида жамоатчиликнинг фаол иштирокини таъминлаш, ижтимоий йўналтирилган иқтисодий лойиҳа ва дастурларнинг давлат томонидан қўллаб-қувватланиши каби ғоялар илгари сурилган.

Учрашувда партиянинг Муборак тумани кенгаши раиси Р.Ҳамроев, Косон педагогика-иқтисодиёт коллежи директори М.Мустафоева ва бошқалар номзоднинг сайловолди дастури ҳақида фикр-мулоҳазаларини билдириб, Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови кўппартиявийлик ва муқобиллик асосда ўтаётгани мамлакатимизда демократия тамойилларига амал қилинаётганидан, миллий сайлов тизимимиз халқаро нормаларга тўла мос келишидан далолат эканини таъкидлади. Сайловчиларни 2015 йил 29 март куни бўладиган Ўзбекистон Республикаси Президенти сайловида фаол иштирок этишга чақирди.

**Ў.БАРОТОВ,**
**ЎзА мухбири**

### Жамоа шартномалари ижроси муҳокамада

***Бугунги кунда Ўзбекистон касаба уюшмалари тизимида қизғин жараён кечмоқда. Яъни, корхона, ташкилот ва муассасаларда жамоа шартномаларининг ўтган йил якунлари бўйича бажарилиши муҳокамасига бағишланган меҳнат жамоаларининг умумий йиғилишлари ҳамда бошланғич касаба уюшма ташкилотларининг ҳисобот-сайлов конференциялари бўлиб ўтяпти.***

***Жумладан, "Ўзметкомбинат" ОАЖ жамоа шартномасининг 2014 йилдаги ижроси муҳокамасига бағишланган меҳнат жамоасининг умумий конференцияси ва касаба уюшмаси ташкилотининг ҳисобот-сайлов конференцияси бўлиб ўтди.***

***Йиғилишда корхона бош директори А.Нурутдинов ва касаба уюшма қўмитаси раиси И.Қурбоновлар сўнгги 5 йиллик фаолият давомида ижтимоий шериклик асосида иш берувчи ва касаба уюшма қўмитаси томонидан ишловчиларнинг ижтимоий-иқтисодий манфаатлари ва меҳнат соҳасидаги ҳуқуқларини ҳимоялаш мақсадида амалга оширилган ишлар тўғрисида ҳисобот бердилар.***





# ХОДИМЛАР МАНФААТИ — ЭЪТИБОРДА

Мазкур корхона мамлакатимиз иқтисодиётида муҳим ўринга эга. Корхонада меҳнаткашларнинг ижтимоий-иқтисодий манфаатлари ва меҳнат соҳасидаги ҳуқуқлари иш берувчи ҳамда касаба уюшма қўмитаси ижтимоий шериклигида мустаҳкам ҳимояга олинган. Хусусан, жамоа шартномасидан ходимлар даромадларини ошириш, уларга қўшимча меҳнат таътиллари бериш, ижтимоий қўллаб-қувватлаш, меҳнат муҳофазаси, моддий ва маънавий ёрдам кўрсатиш, саломатликларини мустаҳкамлаш масалалари ўрин олган. Айниқса, ушбу муҳим ҳужжатда меҳнат муҳофазасига алоҳида эътибор қаратилганлиги боис корхонада ишлаб чиқаришдаги жароҳатланиш ҳолатлари ва касб касалликларининг олдини олиш масаласи энг устувор вазифалардан бирига айланган. Бу соҳада қонунчиликка, қоида ва йўриқномаларга риоя этилиши устидан жамоатчилик назоратини кучайтириш ишлари олиб борилмоқда. Техника хавфсизлигини таъминлаш ва меҳнат муҳофазаси борасида фаоллик кўрсатаётган ходимларни мунтазам равишда касаба уюшма қўмитаси томонидан рағбатлантириб бориш йўлга қўйилган. Бу борадаги ишлар сифати ва самарасини ошириш мақсадида ижтимоий-маиший объектлар ҳолати ва фаолияти доимий назоратга олинган. Ходимлар истаган вақтларида касаба уюшма қўмитасига мурожаат этиб, барча масалада ижтимоий, моддий ва маънавий кўмак олишлари таъминланмоқда

Таъкидлаш зарурки, меҳнат жамоасининг 2010 йилда бўлиб ўтган ҳисобот сайлов йиғилишидан буён республикамизда ва комбинат фаолиятида ижобий маънодаги чуқур ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар рўй берди. Мазкур ўзгаришлар жараёнида корхона касаба уюшма қўмитасининг асосий эътибори цехларда олиб борилаётган ишларни такомиллаштиришга, жумладан, корхонанинг мавжуд молиявий, моддий-техник манбаларини меҳнаткашларнинг ижтимоий ҳимоясига йўналтирилишига қаратилди.

Комбинат раҳбарияти ва касаба уюшма қўмитаси томонидан корхонада иш унумдорлигини ошириш, энергия ресурсларини тежаш, меҳнат ва технологик интизомни мустаҳкамлаш масалаларига юқори даражада эътибор қаратилди. Бунинг натижасида сўнгги 5 йил мобайнида меҳнаткашларнинг ойлик маошлари 2 баробар ўсишига эришилди ва бирон маротаба иш ҳақи тўловларини кечиктириш ҳолатига йўл қўйилмади.

Касаба уюшма қўмитаси ва иш берувчи томонидан ходимлар ижтимоий ҳимоясини кучайтириш мақсадида жамоа шартномаларининг ижтимоий таркибий қисмини кучайтириш ҳамда бандлик масалаларига алоҳида эътибор қаратиш натижасида, комбинатда мунтазам равишда иш ўринларининг барқарорлиги таъминлаб келинмоқда. Жумладан, корхонада шиша идишлари ишлаб чиқариш цехи, Ангрен участкаси, сут маҳсулотлари ишлаб чиқариш цехи, қорамол етиштириш фермаси, парранда фермаси ва 380 ўринли болалар боғчасининг ишга туширилгани фикримиз далилидир.



Жамоа шартномасида олий ўқув юртлари ва касб-ҳунар коллежлари битирувчилари бандлигини таъминлаш масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Натижада, 2010-2014 йиллар давомида комбинатга 471 нафар олий ўқув юртлари ва 559 нафар касб-ҳунар коллежлари битирувчилари ишга жойлаштирилиб, улар тажрибали устозларларга бириктирилди. Комбинат бошқаруви ва касаба уюшма қўмитаси раёсатининг қўшма қарори билан "Энг яхши устоз", "Ишлаб чиқарилаётган маҳсулотга энг кам харажат сарф қилган ҳолда шикастланиш ва ҳалокатсиз юқори маҳсулли меҳнат учун", "Меҳнат муҳофазаси бўйича энг яхши вакил", "Меҳнат муҳофазаси бўйича энг яхши хона-бурчаги", "Энг фаол ёш металлург" кўрик-танловлари ташкил этиляпти.

Жамоа шартномасига мувофиқ корхонада доимий равишда меҳнаткашларни тиббий кўрикдан ўтказиб туриш, уларни махсус кийим-бош, пойабзал ва шахсий ҳимоя воситалари билан таъминлаш йўлга қўйилган.

Комбинат ходимлари ишлаб чиқарилаётган маҳсулот сифатини оширишга қўшган ҳиссаси, ҳалол меҳнатлари учун касб байрамларида доимий рағбатлантириб борилади. Жумладан, ҳисобот даврида 934 нафар ходим корхона Фахрий ёрлиқлари билан тақдирланди ҳамда 1155 нафар ходим моддий рағбатлантирилди. Комбинатда ишлаган, ёшга доир ёки бошқа имтиёзлар туфайли нафақага чиққан ходимларга 475 млн. сўм миқдорида моддий ёрдамлар кўрсатилди. Корхонада 20 йил ишлаган эркаклар ва 15 йил ишлаган аёллар жами 558 млн. сўм миқдорида бир марта моддий рағбатлантирилди.

Мазкур давр мобайнида корхона томонидан ижтимоий муҳофазага муҳтож 47 нафар оила вакиллари фарзандларининг 33 млн. сўмлик боғча тўловлари тўлаб берилди. Бундан ташқари, 43 нафар бола учун боғча тўловининг 50 фоизини қоплаш учун 15 млн. сўм тўланди.

Меҳнаткашларга касаба уюшмаси ва иш берувчи ижтимоий шериклигида 1 млрд. 336 млн. сўмлик ижтимоий кўмак кўрсатилди. Корхона меҳнаткашларининг 2000 нафарига санаторийларда соғлиғини тиклаши учун 1307 млн. сўмлик йўлланмалар харид қилинди, шу жумладан, 120 та йўлланма ижтимоий ҳимоятталаб оилалардан бўлган ходимларга бепул берилди. Шу билан бирга 5877 нафар меҳнаткаш ва уларнинг оила аъзолари санаторий-профилакторийда дам олдирилди.

Уруш ва меҳнат фахрийларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш мақсадида 210 млн. сўмлик моддий ёрдамлар, шу жумладан, санаторийга бориш йўл харажатлари қоплаб берилди.

Ўтган давр мобайнида маданий-оммавий, жисмоний тарбия, соғломлаштириш ва спорт тадбирларини ўтказиш учун касаба уюшма қўмитасига комбинат томонидан 3 млрд. 643 млн. сўм ўтказиб берилди. Олимлар, маданият ва санъат арбоблари билан учрашувлар ташкил этилмоқда. Меҳнат жамоаси "Металлурглар" маданият саройи ва спорт-соғломлаштириш мажмуида маданий-маърифий тадбирлар ҳамда жисмоний тарбия ва спорт машғулотларига оммавий жалб этилмоқда. Хусусан, комбинат спорт-соғломлаштириш мажмуи томонидан ходимлар ва уларнинг оила аъзоларини жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланишга жалб этиш, оммавий спорт ва жисмоний тарбия-соғломлаштириш тадбирларини ўтказиш, болалар спортини ривожлантириш, юқори даражадаги спортчиларни тайёрлаш ишларига катта эътибор қаратиб келинмоқда. Ушбу мажмуанинг 14 спорт тури бўйича секцияларида бугунги кунда 1113 нафар бола ва 1100 нафардан ортиқ ходим мунтазам шуғулланмоқда.

Корхона жамоа шартномасининг 2014 йилдаги ижроси муҳокамасига бағишланган меҳнат жамоасининг умумий конференцияси ва касаба уюшма ташкилотининг ҳисобот-сайлов конференциясида ушбу йўналишлардаги масалалар таҳлил этилиб, ходимлар муҳокамасидан ўтказилди. Хусусан, меҳнаткашлар ва касаба уюшма фаоллари сўзга чиқиб, жамоа шартномаси орқали ходимлар манфаатлари ҳимояси қай даражада таъминланаётгани тўғрисида ўз фикр ва мулоҳазаларини билдирдилар. Шунингдек, касаба уюшма аъзолари томонидан жамоа шартномасига Кексаларни эъзозлаш йили муносабати билан бир қатор қўшимча имтиёзлар киритиш бўйича билдирилган таклифлар бир овоздан маъқулланди.

Йиғилиш якунида мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислоҳотлар ва улар натижасида эришилаётган муваффақиятлар, шунингдек, Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерациясининг V Қурултойидан сўнг ўтган даврда тизимни такомиллаштириш йўналишида олиб борилган ишлар натижасида эришилган кўрсаткичлар, бу орқали меҳнаткашлар учун яратилган қўшимча имтиёз ва кафолатлар тўғрисида батафсил маълумот берилди.

**Муҳаббат ЎРМОНБЕКОВА,**
**Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси Кенгаши матбуот хизмати раҳбари.**
**Неъмат РАФИҚОВ,**
**"Ishonch" мухбири**
**Адҳам АРСЛОНОВ**
**олган суратлар**

2015-yil 24-fevral, seshanba, № 26 (3531), www.ishonch-doverie.uz, e-mail: xatlar@ishonch-doverie.uz

# Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик тараққиёти

иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш ва халқимиз фаровонлигини изчил юксалтириб боришнинг бош омили







## ШУМАНАЙДА ЯНГИ КОРХОНА

***Қорақалпоғистон Республикаси Шуманай туманида полипропилен қоп ишлаб чиқаришга ихтисослашган «Invest servis Shomanay» хусусий корхонаси иш бошлади.***

Йилига уч миллион дона полипропилен қоп ишлаб чиқариш қувватига эга замонавий корхонада йигирмага яқин иш ўрни яратилди. Кунига 8-9 минг донагача қоп Қўнғирот сода заводи ҳамда ички бозордаги бошқа буюртмачиларга етказиб берилаяпти.

***Суратларда:*** *«Invest servis Shomanay» хусусий корхонасида; корхона ишчиси Жамила Нажиматдинова.*

**ЎзА фотомухбири**
**Мақсад ҲАБИБУЛЛАЕВ олган суратлар**

***Хусусий мулкни шакллантириш, кенгайтириш, кўпайтириш туфайли элу юртга, давлатга фойдаси тегувчи кишилар қатлами юзага чиқди. Бугун уларни оддийгина қилиб тадбиркор дея атаяпмиз.***

## ЗАМОН БИЛАН ҲАМНАФАС

Яратилган қулай ишбилармонлик муҳити, тайёрланаётган маҳсулотларни экспорт қилиш борасида олиб борилган чора-тадбирлар натижасида ўтган йилнинг ўзида 112,7 млн. долларлик экспорт амаллари бажарилиб, мос равишда экспорт географияси кенгайди. Бугунги кунда вилоятда тайёрланаётган маҳсулотлар дунёнинг 67 та давлатига сотилмоқда. Биргина, 2014 йилнинг ўзида Чехия, Бразилия, Финландия, Малайзия, Миср, Дания каби хорижий мамлакатларга маҳсулотлар экспорти йўлга қўйилди. Экспорт қилувчи корхоналарнинг қўллаб-қувватланиши натижасида ўтган йилнинг ўзида 39 тага кўпайиб, 148 тага етди.

Давлатимиз томонидан кейинги йилларда хусусий мулкчилик ва тадбиркорликни ривожлантириш йўлидаги чекловларни бартараф этиш, бу борада тўлиқ эркинлик бериш бўйича олиб борилаётган чора-тадбирлар керакли натижани бермоқда. Хусусан, вилоятда сўнгги 5 йилда 9,4 мингдан зиёд янги кичик бизнес субъектлари ташкил этилиб, уларнинг сони 15,3 мингтага етди. Яна бир муҳим жиҳати, аҳоли ва тадбиркорларга муҳандислик тармоқларига уланиш, турли рухсат берувчи ҳужжатларни бир жойда ҳал этиш, коммунал тўловларни амалга ошириш, бир сўз билан айтганда тадбиркорнинг вақтини тежаш мақсадида маҳаллий ҳокимликлар ҳузуридаги "Ягона ойна" маркази "бир дарча" усулида йўлга қўйилгани ва бугунги кунда марказлардаги 10 тадан 16 тагача бўлган хизматлар кўрсатилаётганини эътироф этиш ўринли.

— Тадбиркорлик соҳасида фахрлансак арзийдиган кўрсаткичлар анчагина, — дейди Наманган туманидаги "Nafis tex group" МЧЖ касаба уюшма қўмитаси раиси Зоҳиджон Аҳмадалиев. — Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Тараққиёт дастурининг баҳосига кўра, Ўзбекистон сўнгги йилда бизнес юритишни енгиллаштириш соҳасида амалга оширилган ислоҳотлар бўйича етакчи ўнта мамлакат қаторидан жой олди. Бундан қувонмай, фахрланмай бўладими? Фахрланиш баробарида шундай эркин, қулай шароитда меҳнат қилаётганимиз учун шарафли масъулиятни ҳам ҳис этамиз. Айни пайтда корхонамизда 190 нафар ишчи-ходим меҳнат қилаётир. Уларнинг аксарияти коллеж битирувчиларидир. Шу ўринда уларнинг ёш бўлишига қарамай, маҳорати ва билими юксак эканлигини эътироф этиш ўринли. Ҳамиша бир ёқадан бош чиқариб, ҳамжиҳатликда ишлаганимиз учун ҳам биз ишлаб чиқараётган 20 турдан ортиқ болалар ва катталар кийимлари харидорини топиб улгурди. Маҳсулотларимиз халқаро миқёсда ҳам эътироф этилиб, ISO – 9001: 2008 сертификатини қўлга киритдик.

Наманганда бундай муваффақиятлари билан фахрлана оладиган, ҳамиша юрт корига елка тутгувчи кўплаб тадбиркорларнинг борлиги қувончли.

**Дилдора РАҲМОНОВА,**
**"Ishonch" мухбири**

***Ломоносов номидаги Москва давлат университетининг Тошкент шаҳридаги филиалида «Тадбиркорнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатлари — давлат ҳимоясида» мавзуида семинар ўтказилди. Миробод туманида фаолият юритувчи тадбиркорлик субъектлари иштирокида ўтган ушбу тадбирда туман прокуратураси, ҳокимлик, давлат солиқ инспекцияси, савдо-саноат палатаси, ҳокимлик ҳузуридаги тадбиркорлик субъектларини рўйхатдан ўтказиш инспекцияси, туман савдо департаменти ва бошқа қатор ташкилотлар вакиллари қатнашди.***

## МУҲИМ ОМИЛ

Юртбошимизнинг мамлакатнинг 2014 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2015 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисида сўзлаган маърузасида прокуратура органларига тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишни кучайтиришга оид вазифалар юклатилди. Бош прокурор томонидан 2015 йил 28 январ куни мазкур маърузадан келиб чиққан ҳолда прокуратура органларига юклатилган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида фармойиш қабул қилинди.

Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқий ҳимоясига қаратилган қонун ҳужжатларини тарғиб қилиш бўйича прокуратура органлари томонидан қатор ишлар олиб борилмоқда. Жумладан, туман прокуратураси ташаббуси билан ҳокимият ва маҳаллаларда тадбиркорлик субъектлари иштирокида учрашувлар ташкил этилаётир. Уларда тадбиркорларга ҳуқуқ ва қонуний манфаатлари тушунтирилиб, ушбу йўналишда қабул қилинган қонун ҳужжатлари тарғиботи олиб борилмоқда, қолаверса, назорат қилувчи органлар томонидан ўтказиладиган режавий ва режадан ташқари текширувлар ҳақида тушунтиришлар берилмоқда.

Тадбирда туман ҳокими Ш.Қодиров сўзга чиқиб, ҳудудда тадбиркорликка яратилаётган қулайликлар юзасидан олиб борилаётган ишларга батафсил тўхталди. Шунингдек, туман давлат солиқ инспекцияси бошлиғи Ў.Аҳмедов солиқ ва молиявий ҳисоботларни янада қисқартириш юзасидан қабул қилинган меъёрий ҳужжатлар, солиқ имтиёзлари тўғрисида маълумот берди.

Семинарда мавзу юзасидан тегишли қарорлар қабул қилинди.

**Салим АБДУРАҲМОНОВ,**
**"Ishonch" мухбири**

***Замон билан ҳамнафас фаолият юритаётган Бешариқ туманидаги "Водий наслли парранда" хусусий корхонаси замонавий технологиялар жалб этилиши натижасида янги муваффақиятларга эришиб, соҳада етакчилардан бирига айланди.***

## ЮКСАЛИШ

Яқинда Украина ва Германия мамлакатларидан келтирилган 120 минг бош паррандага мўлжалланган 3 та замонавий технологиянинг ишга туширилиши ишлаб чиқариш самарадорлигини янада оширмоқда. Айниқса, Хитойнинг соатига 1000 дона тухум қадоқлаш идишларини тайёрлайдиган технологияси маҳсулотлар сифати ортишини таъминлаётир. Корхонада ишнинг бундай ташкил этилиши, янги иш ўринлари яратилишига ҳам имкон бермоқда.

— Муваффақиятимизда ҳукуматимизнинг тадбиркорлик ва хусусий бизнесга катта эътибор қаратаётгани асосий омил бўлмоқда, — дея таъкидлайди корхона раҳбари Б.Тоҳиржонов. — Биргина солиқ имтиёзлари туфайли ўтган йилда 140 млн. сўм маблағ тежаб қолинди. Бу маблағлар ва банк кредити ҳисобидан бир-икки ойлик жўжаларни парваришлаб, аҳолига етказиб бериш ниятидамиз. Бу туманимиз ва вилоятимизда юзлаб янги иш ўринлари яратилишига имкон беради.



ЎзА сурати

Корхонада ишчи-ходимлар учун қулай меҳнат ва дам олиш шароитлари яратилган бўлиб, коллеж битирувчилари бу ерда ишлашни ният қилишмоқда.

**Абдулҳай ЮНУСОВ,**
**"Ishonch" мухбири**

## САВОБ

***Музработдаги "Шабода" қишлоғи аҳли туман марказига бориш учун торгина қўлбола кўприкдан ўтишарди. Айниқса, қиш фаслида бу жойдан ўтиш машаққат эди.***

Тадбиркор Саъдулло Панжиев замонавий қурилиш материалларидан узунлиги 23, эни 2 метр ҳажмда мустаҳкам кўприк барпо этиб, савобга қолди. У аввал "Меҳнатобод" маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида жойлашган қишлоқ қабристонини ҳам обод қилганди.

— Кексаларни эъзозлаш йилида тумандаги уруш қатнашчилари ва байналмилал жангчиларга совғалар улашиш, қишлоғимиздаги ички йўлларга шағал тўшаш, яна бир қанча эзгу ишларни амалга оширишни бошлаб юбордик, — дейди тадбиркор.

**Рустам ДАВЛАТОВ,**
**"Ishonch" мухбири**

***Мамлакатимизда барча соҳалардаги каби қишлоқ хўжалигида ҳам изчил ислоҳотлар олиб борилмоқда. Фермерлик ўзининг равон йўлига тушиб олди.***

## МАЪМУРЧИЛИК ЙЎЛИДА

Ўтган йили агросаноат мажмуи ходимлари касаба уюшмаси тизимидаги жамоалар ўртасида бўлиб ўтган "Йилнинг энг фаол ёш мутахассиси" кўрик-танловининг вилоят босқичида қатнашиб, фахрли биринчиликни қўлга киритдим ва тармоқ касаба уюшмасининг қимматбаҳо соврин ва дипломига сазовор бўлдим.

Фермер хўжалигимиз нафақат "Иқбол" сув истеъмолчилари уюшмасида, балки туман, вилоят миқёсида ҳам ўз ўрнига эга. Ўтган йиллардаги фаолиятимизга назар ташлар эканман, йил сайин қўлга киритилаётган муваффақиятлар замирида жамоамиз аҳиллиги, меҳнатсеварлиги, етук мутахассисларнинг заҳматли меҳнати турганини ҳис этаман. 2013 йили вилоят миқёсида ўтказилган "Энг намунали фермер" кўрик-танловида иштирок этиб, биринчи ўринга сазовор бўлдик ва "Микрокредитбанк"нинг 15 миллион сўмлик имтиёзли кредит сертификатини қўлга киритдик. Ушбу маблағ ҳисобига 1,5 сотих майдонда иссиқхона барпо этдик. Ҳозирда иссиқхонада лимон ва кўкатлар етиштирилаяпти. Иш кўламимиз кенгайиши натижасида, қишлоқ ёшларига янги иш ўринлари яратиляпти. Қаровсиз ётган 1,5 гектар майдонда мўъжаз боғ ҳам яратдик. Тадбиркорлик йўлидаги ҳаракатимиз туфайли жамоада яна учта янги доимий иш ўрни яратилди ва аъзолар сони 17 нафарга етди.

Яна бир эътиборли жиҳати шундаки, ишчи-ходимларнинг барчаси касаба уюшма аъзолигига қабул қилиниб, уларнинг ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий манфаатлари жамоа шартномаси орқали ҳимояга олинган. Тумандаги барча фермер хўжаликларида ана шундай муҳим локал ҳужжат тузиш ҳамда улар ижросини таъминлашга эришилаяпти.

Даштобод шаҳарчасидаги "Пахтакор" маҳалла фуқаролар йиғинида ўтказиладиган тадбирларда ҳам фаол қатнашиб, кўплаб лойиҳаларни амалга оширишда моддий, маънавий кўмак беряпмиз. Сўнгги икки йилда хўжалигимиз спортни ривожлантириш борасида "Зомин", "Сўғдиёна" футбол жамоалари ҳамда Болалар спортини ривожлантириш жамғармасига ҳомийлик ёрдами кўрсатди.

Ёшлардан иборат жамоамиз жорий йилда янги марраларни кўзлаб, шижоат билан меҳнат қилишаяпти.

**Дилшод САИДҚУЛОВ,**
**Зомин туманидаги "Муртозақул" фермер хўжалиги раҳбари**

***Сўнгги йилларда Андижон вилояти бозорларида «SALHAMTEX» ёрлиғи остидаги трикотаж маҳсулотларига бўлган талаб ортиб бормоқда. Пешма-пеш сотилаётган сифатли, бежирим, кўркам дизайндаги кийим-кечаклар харидорларга ҳар жиҳатдан маъқул бўляпти.***

## ИМПОРТ ЎРНИНИ БОСИБ

Эришилаётган ютуқлар — Андижон туманидаги "Салом ҳамкор текстил" хусусий корхонаси раҳбари Умидахон Ҳошимованинг янгиликка интилиши, бозор иқтисодиёти шароитларини пухта ўзлаштиргани, муҳими, мамлакатимизда тадбиркорларга яратилаётган имконият ва имтиёзлардан унумли фойдалангани маҳсули. Дастлаб беш хил маҳсулот ишлаб чиқарилган корхонада бугунги кунда қарийб 50 турдаги кийим-кечак тайёрланмоқда.

Бу ерда айни пайтда 26 нафар малакали чевар қўли қўлига тегмай меҳнат қиляпти. Уларнинг 7 нафари ўтган йили касб-ҳунар коллежларини тамомлаган. Улардан бири Наргизахон Жабборова ишлаб чиқариш амалиётини корхонада ўтаб, шу жойнинг ўзида доимий иш ўрнига эга бўлди.

— Устозларимдан тикувчилик сирларини янада пухта ўрганишга ҳаракат қиляпман, — дейди у. — Биз тайёрлаётган кийимларнинг харидоргирлиги, албатта, ишимизга берилган баҳо.

Корхонада Андижон туманидаги саноат ва энергетика касб-ҳунар коллежининг 30 нафар ўқувчиси ҳам тажрибали тикувчилар билан ёнма-ён туриб, амалиёт ўтамоқда. Ўқув йили якунлангач, шу ернинг ўзида 10 нафарини иш билан таъминлаш режалаштириляпти. Жорий йилда инвестиция дастури асосида «Ҳамкорбанк»нинг молиявий кўмаги билан Японияда ишлаб чиқарилган замонавий тикув машиналари келтирилади. Бу эса, фаолиятни кенгайтириш, маҳсулот миқдори ва сифатини оширишга хизмат қилади.

— Юртимизда тадбиркорларнинг қўли узун, — дейди Умидахон Ҳошимова. — Тўрт йил илгари тижорат банкининг ўз мижозлари ўртасида ўтказган танловида қатнашиб, «Энг яхши бизнес-лойиҳа» номинацияси ғолиби бўлдик ҳамда 100 миллион сўм миқдоридаги имтиёзли кредитга муносиб кўрилдик. Ўтган йиллар биз учун ривожланиш даври бўлди. Даромадимиз ортиши эвазига яқинда янги бино қуриб, фойдаланишга топширдик.

Ўтган йили корхона билан хорижлик ҳамкорлар ўртасида 100 минг АҚШ долларилик экспорт шартномаси имзоланган эди. Ҳамкорларнинг эътироф этишича, кийим-кечаклар сифати ва ўзига хос бичими билан хорижлик аёлларга ҳам маъқул бўлмоқда.

Бир сўз билан айтганда, молия муассасаларининг моддий ва маънавий кўмаги билан қисқа муддатда оёққа туриб олган корхона жамоасининг йўли ойдин, мақсади аниқ.

**Нурилло НЎЪМОНОВ,**
**"Ishonch" мухбири**

***Ўткир Жалиловнинг "Когон металл савдо сервис" масъулияти чекланган жамиятини ташкил этганига ҳали унча кўп вақт бўлгани йўқ. Ўтган йилнинг ўзида асосий ишчи-ходимлар сони 15 нафарга, шартнома асосида ишлайдиганлар эса 10 нафарга етди. Коллеж битирувчиларидан 2 нафари жамоанинг доимий аъзолари сафидан жой олди.***

## ХАРИДОРГИР МЕБЕЛЛАР

— 2014 йилда коллежни битириб, ишга келганимда жамоа мени яхши кутиб олди, — дейди мебел цехи дизайнери Обид Қиличев. — Тажрибали уста Жаҳон Умаров мени шогирдликка қабул қилди. Унинг кўрсатмаларига амал қилиб кам бўлмадим. Бугун мустақил ишлаяпман. Цехимизда ишлаб чиқарилаётган мебелларга компютер асосида гул соламан. Бу эса маҳсулотларимизнинг харидоргирлигини оширмоқда.

Корхонада дастлаб ноозиқ-овқат маҳсулотларининг улгуржи ва чакана савдосини амалга ошириш йўлга қўйилган бўлса, кейинчалик хориждан замонавий ускуналар харид қилиниб, мебел ишлаб чиқариш ва сотишга қўл урилди. Цехда тайёрланаётган стол, стул, ошхона мебеллари ва МДФ эшикларига талаб кун сайин ортиб бормоқда. Айни пайтда бу ерда иш кўлами кенгайтирилиб, металлоконструкция ва металлопрокатлар, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш, корхона ҳисобидаги автомашиналарни ижарага бериш, электр пайвандлаш ва автоген ишларини амалга ошириш ҳам йўлга қўйилган. Шунингдек, 25 сотихда ташкил этилган иссиқхонадан келаётган даромад йил сайин кўпайиб бормоқда.

— Кейинги йилларда тадбиркорликни ривожлантириш борасида кенг имкониятлар яратилаётгани ва уларнинг давлат томонидан қўллаб-қувватланаётгани ҳар жиҳатдан мақбул иш бўлаяпти, — дейди корхона масъул ходими Ҳотам Каримов. — "Қишлоқ қурилиш банк"нинг Когон филиалидан 200 млн. сўм кредит олган эдик. Уни апрел ойида тўлиқ ёпамиз. Яна 400 млн. сўм кредит олиб, фаолиятимизни кенгайтирмоқчимиз.

Ишчи-ходимларга яратилган қулай меҳнат шароитлари юқори иш унумини таъминлаяпти. Корхона ҳисобидан уларга кунига 3 маҳал иссиқ овқат берилади. Ойлик маошлар ўз вақтида тўланади. Жамоа аъзолари қишки ва ёзги сунъий қопламали мини футбол майдонида спорт билан шуғулланиб, саломатликларини мустаҳкамлаш имконига эга. Ушбу спорт иншоотларидан қўшни корхона, ташкилот ва муассаса ишчи-ходимлари ҳам шартнома асосида фойдаланишаётир. Яқинда жамоада касаба уюшма ташкилоти тузилди. Унга ходимлар ўртасида ҳурмат-эътиборга сазовор бўлган Рустам Сафаров раис этиб тайинланди.



Корхонада жорий йилда 5 нафар коллеж битирувчиси учун доимий иш ўринлари яратиш чоралари кўрилган. Ходимларнинг меҳнат қилиши, дам олиши ва саломатлигини мустаҳкамлаши, малакасини ошириши учун имкониятлар янада кенгайтирилади. Бу эса ишловчининг ҳам, иш берувчининг ҳам манфаатига бирдек хизмат қилиши шубҳасиз.

**Иззатулла ҲОЖИЕВ,**
**"Ishonch" мухбири**

